

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

SULAYMANBEKOV OYBEK DUSBEOVICH

**O‘QUVCHILARDA IJTIMOIIY BURCH HISSINI QAROR TOPTIRISHNING
PEDAGOGIK MEKANIZMLARI**

13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlaniye avtoreferata dissertasii doktora filosofii (PhD) po pedagogicheskim
naukam**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Sulaymanbekov Oybek Dusbekovich

O'quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari 3

Sulaymanbekov Oybek Dusbekovich

Pedagogicheskiye mexanizmy formirovaniya u studentov chuvstva sosialnogo dolga 25

Sulaymanbekov Oybek Dusbekovich

Pedagogical mechanisms of determining students' sense of social duty 48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Spisok opublicovannykh rabot
List of published works..... 53

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

SULAYMANBEKOV OYBEK DUSBEOVICH

**O‘QUVCHILARDA IJTIMOIIY BURCH HISSINI QAROR TOPTIRISHNING
PEDAGOGIK MEKANIZMLARI**

13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida V2022.2.PHD/Ped3451 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Botirova Shaxlo Isamiddinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mahkamov Ulfat Ilxamovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Shahzoda abdullayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertasiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2023 yil “___” _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.) Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; ye-mail: cspi_kengash@umail.uz).

Dissertasiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

U. N. Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d (DSc), dotsent

F. T. Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, geografiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

V. Fayziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda pedagogika fan sohasining innovatsion taraqqiyot sari yuz burishi umumiy o'rta ta'limning tashkiliy, ta'limiy va tarbiyaviy jabhalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, mutaxassislarda ijtimoiy javobgarlik shakllanganlik darajasining eng muhim masalaga aylanayotganligi ta'lim oluvchilarning ijtimoiy tayyorgarligiga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo qilmoqda. Ta'lim jarayoniga joriy etilayotgan innovatsion yangiliklar, zamonaviy pedagogik yondashuv va paradigmalar samarasi o'qituvchining kasbiy-pedagogik kreativligiga bevosita bog'liq. Ta'lim mazmuni va sifatini oshirishga qaratilgan xalqaro hujjatlar, xususan, Sorbonna deklarasiyasi (Sorbonne Declaration, 1998), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum, 2000), BMTning "Ming yillik deklarasiyasi" (UN "Millennium Declaration", 2000) va Lissabon tan olish konvensiyalarida (Lisbon Recognition Convention, 1997) zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida maktab o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-huquqiy jihatdan kompetentli qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratilgan.

Dunyoning bir qator ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlar asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy jihatdan savodli, mas'uliyatli va o'z burchini sifatli darajada ado etadigan, zamonaviy dunyo uchun zarur bo'lgan muayyan ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan modernizatsion didaktik tizimni takomillashtirish asosida mediasavodxonlikning samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish va ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy burch ko'nikmalarini kognitiv va motivatsion jihatdan sifatli tarkib toptirishning amaliy-pedagogik jihatlarini aniqlashtirish, innovatsion ta'lim muhiti sharoitida o'quvchining o'quv-biluv ko'nikmalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda yangicha jamiyat barpo etish jarayoni yoshlarga e'tibor, ularning iqtidor va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ular uchun keng imkoniyatlar yaratish kabi ta'limiy-tarbiyaviy jarayonlar bilan bog'liq ravishda kechmoqda va bu maktab o'quvchilari, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarni ijtimoiy me'yorlar bilan yaqindan tanishtirish, huquq va burch tushunchalarini anglatish, ularga qat'iy amal qilish ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo qilmoqda. Zero, "yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, ularga Konstitusiyaning muhim jihatlarini bolaligidan boshlab o'rgatish, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish"¹ga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijtimoiy burch hissini sifatli tarkib toptirish, shuningdek, o'quvchilarda shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish va umummadaniy

¹ Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш концепцияси / Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 январдаги "Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида"ги ПФ-5618-сон фармони, 1-илова.

kompetensiyalarini qaror toptirish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur o'rganilishi lozimligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz va xorijda o'quvchilarning ijtimoiylashuv muammosi hozirgi kungacha ilmiy izlanuvchilar hamda olimlarning tadqiqotlari predmetiga aylangan.

O'zbekistonda o'quvchilarda ijtimoiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirish, huquq va burch me'yorlarini anglashlariga ko'maklashish orqali ularning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish, o'quvchilarning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar tasnifi kabi masalalar O.Musurmonova, U.Mahkamov, O.Karimova, M.Quronov, H.Boboyev, Sh.Mardonov, A.Saidov, G'.Ahmedov, H.Q.Yo'ldoshev, R.Mahmudov; faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va shaxsiy hayotini tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiylashuv muammosining pedagogik va psixologik xususiyatlari kabi muammolar A.Zunnunov, A.Rafikov, R.G'.Safarova, R.H.Jo'rayev, Sh.Tog'ayev, A.Qodirov, G.Tillayeva, J.Irisboyev, I.Qodirov, M.Abdullayeva, Z.S.Qodirova, A.J.Allambergenov, B.A.Akbarovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy me'yorlarga o'rgatishning pedagogik xususiyatlari, ijtimoiy burch muammosining falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlari, bola va jamiyat muammosining tipologik xususiyatlari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari A.I.Krupnov, V.P.Pryadin, A.I.Golubev, N.P.Dubin, T.F.Ivanova, B.C.Ageyev, G.M.Andreyeva, G.V.Kovaleva, K.Muzdibayev,

N.I.Skorbin, A.Adler, R.Mey, V.A.Rozanovlar tomonidan turli aspektlarda o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan Jon Kin (John Keane), Syuzan Tompson (Susan Thompson), Djeys Merrill (James Merrill), Kerolayn Uilson (Caroline Wilson), Eleanor Byord (Eleanor Bird), Richard Sayers (Richard Sayers)larning tadqiqotlarida o'quvchilarning ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga amal qilishi, ijtimoiylashuv jarayoni, maktabda o'quvchi shaxsiy hayotini tashkil etish va boshqarish kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialining "Talabalarda assertiv hulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan (2020-2022 yy).

Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning nazariy aspektlari, pedagogik omil va shart-sharoitlarini aniqlashtirish; ijtimoiy burch hissini qaror toptirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlarini takomillashtirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning metodik-didaktik asoslarini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 235-umumiy o'rta ta'lim, Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanidagi 5-umumiy o'rta ta'lim va Jizzax viloyati Zafarobod tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktablarining 389 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning mazmuni, tamoyillari, samarali yo'l, shakl, usul va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish, tahliliy-sintetik), diagnostik (so'rovlar, test, kuzatish, suhbat), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) usullar majmuidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik omil va shart-sharoitlari uning tartibga solish, yo'naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi funksiyalarini ta'lim mazmuniga kuchaytirish (adaptiv), kengaytirish (qisman modellashtiruvchi) va

takomillashtirish (tizimli modellashtiruvchi) xususiyatlariga muvofiq kognitiv va motivasion komponentlar vositasida singdirish asosida aniqlashtirilgan;

ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning ta'lim imkoniyatlari ijtimoiy bilimlarni oshirishga qaratilgan tadbirlar majmui, usul va vositalarni ijtimoiy axloqni kuchaytirishga qaratilgan metod va usullarga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari vositasida integrasiyalash asosida takomillashtirilgan;

ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik modeli ijtimoiy ko'nikma va malakaga asoslangan reflektiv texnologiyalar mazmunini tayanch, umumiy va xususiy kompetensiyalarga motivasion (pragmatik omil), empirik (kognitiv omil) va faoliyatli (deterministik omillar) komponentlar vositasida singdirish asosida takomillashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning metodik-didaktik asoslari ijtimoiy ong va ijtimoiy axloqni ijtimoiy faoliyat ko'nikmasiga aylantirishda pedagogikaning kognitiv, madaniy va kompetentlik paradigmalari deterministik omil sifatida ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishga doir diagnostik vositalar majmui ishlab chiqilgan;

o'quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning reflektiv texnika va usullari majmui ishlab chiqilgan;

"O'quvchilarda ijtimoiy burch hissini tarbiyalash" nomli metodik qo'llanma nashr qilingan;

o'quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning metodik-didaktik asoslari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoni o'rganishda falsafiy, metodologik, metodik, pedagogik va psixologik yondashuvlarga hamda ijtimoiy burch hissini qaror toptirish bo'yicha olib borilgan respublikamiz va chet ellik olimlarning tadqiqot ishi natijalariga asoslanganligi; tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati innovatsion ta'lim sharoitida o'quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishga doir ma'lumotlarning talqiniga oid zamonaviy mulohazalar ko'lamining kengaytirilganligi, pedagogika fan sohasining yangi xulosalar bilan boyitilganligi, ya'ni o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonining umumiy reflektiv ko'nikmalar bilan o'zaro uyg'unligi dinamikasining aniqlanganligi, uning qirralari ifodalanganligi va talqin qilinganligi, o'quvchilarni ijtimoiy burch hissini qaror toptirishda reflektiv yondashuv modernizatsion vositasi ekanligi empirik asoslanganligi, umumta'lim maktablarida ijtimoiy burch hissini shakllantirish va

rivojlantirish jarayoni amaliy yondashuvga asoslangan holda tashkil etishga bog‘liqligi nazariy materiallar asosida boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik modeli takomillashtirilganligi, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar asosida o‘quvchilarda ijtimoiy burch hissini shakllantirish yo‘llarining ishlab chiqilganligi, tadqiqot natijalaridan umumiy o‘rta ta‘lim sohasi malaka talablari, o‘quv dasturli, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish, auditoriyadan tashqari tadbirlarni loyihalash, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

ijtimoiy burchning tartibga solish, yo‘naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi funksiyalarini kuchaytirish, kengaytirish va takomillashtirish xususiyatlariga muvofiq kognitiv va motivatsion komponentlar vositasida singdirish asosida aniqlashtirilgan ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik omil va shart-sharoitlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishga doir ishlab chiqilgan diagnostik vositalar majmui bo‘yicha taklif va tavsiyalar umumiy o‘rta ta‘lim maktablari boshlag‘ich sinflari uchun nashr etilgan “Внеклассная работа в начальной школе” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug‘i bilan berilgan №302-0887-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari boshlag‘ich sinflarining metodik ta‘minoti boyitilgan;

ijtimoiy bilimlarni oshirishga qaratilgan tadbirlar majmui, usul va vositalarni ijtimoiy axloqni kuchaytirishga qaratilgan metod va usullarga shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari vositasida integrasiyalash asosida takomillashtirilgan ijtimoiy burch hissini qaror toptirishda ta‘lim imkoniyatlari, o‘quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning reflektiv texnika va usullari majmui borasidagi taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vazirligi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali tomonidan bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vazirligi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2023-yil 15-avgustdagi №433-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yoshlarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirish orqali ularni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning didaktik ta‘minoti takomillashtirilgan;

ijtimoiy ko‘nikma va malakaga asoslangan reflektiv texnologiyalar mazmunini tayanch, umumiy va xususiy kompetensiyalarga pragmatik, emperik va deterministik omillar vositasida singdirish asosida takomillashtirilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik modeli,

ijtimoiy ong va ijtimoiy axloqni ijtimoiy faoliyat ko'nikmasiga aylantirishda pedagogikaning kognitiv, madaniy va kompetentlik paradigmalariga deterministik omil sifatida ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning metodik-didaktik asoslari bo'yicha ilmiy xulosa va metodik tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali tomonidan bajarilgan F3-2016-09081165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023-yil 15-avgustdagi №433-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarda ijtimoiy burch hissini shakllantirish ota-ona, maktab va mahalla hamkorligi mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta DGU, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa 113 bet matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanadi va unda ijtimoiy burch hissini qaror toptirish pedagogik-psixologik muammo sifatidagi tavsifi, ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari nazariy aspektda va tushunchaning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati amaliy aspektda tahlil qilingan.

Jamiyatning demokratlashuvi va insonparvarlashuvi jarayonida shaxsning undagi burchlarini anglash muhim vazifaga aylandi. Bu, o'z navbatida, kadrlar tayyorlash va ularning ijtimoiy talablarga muvofiqligi bilan bog'liq muammo sanaladi. Kasbiy yetuk mutaxassislarni yetishtirish va ularni pedagogik faoliyatga yo'naltirishning eng maqbul usullarini ishlab chiqish ta'lim tizimida muntazam shug'ullaniladigan muammolardan hisoblanadi.

“Ijtimoiy burch” tushunchasini pedagogik aspektda tahlil etish, dastavval, uning lingvistik ma’nosini ifodalashni talab etadi. “Burch – ado etilishi, bajarilishi majburiy bo‘lgan vazifa, majburiyat. *Vatanparvarlik burchi. Xizmat burchi...*”². Bundan ayon bo‘ladiki, burch so‘zi “majburiyat” so‘zi bilan sinonim sanaladi. O‘z navbatida, majburiyat so‘zi ham lug‘atlarda arabchadan olingan bo‘lib, uning ma’nolaridan biri “burch” ekanligini guvohi bo‘lamiz: “Majburiyat – [arabcha. - majburlik; noilojlik; burch] 1. G‘ayriixtiyoriy vazifa, burch yoki biror majburiy ish, holat, ehtiyoj. *Toshkent jo‘nash uchun o‘zida majburiyat his etar.. boshqa chora yo‘q edi.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. ... 2. Mehnat ahllarining biror ishni bajarish uchun bergan qat’iy va’dasi. *Zveno bo‘yicha majburiyat har gektaridan o‘n bir sentner edi, hozir o‘n to‘rt berdik.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari...”³. Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda biz o‘z dissertatsiyamizda o‘rni bilan ushbu tushunchalarni sinonim sifatida qo‘llashni to‘g‘ri, deb hisoblaymiz. Boshqa tillar kabi o‘zbek tilida ham mazkur tushunchalar “mas’uliyat” so‘zi bilan mazmunan bog‘liqdir. Chunki o‘z burchini bilgan kishi, albatta, mas’uliyatli shaxs sanaladi. “Mas’uliyat – [arabcha. javobgarlik, hisob berishlik] biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo‘lgan javobgarlik. *Xalq nomzodlari o‘zlarining intizomliligi, yuksak mas’uliyat hissi bilan ajralib turadi.* Gazetadan”⁴. Demak, “mas’uliyat”, o‘z navbatida, burch va majburiyat so‘zlaridan mazmunan farq qiladi.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”sida “burch” tushunchasi ma’nosi yanada kengroq yoritilganligining guvohi bo‘lamiz: “Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Burchda ob’yektiv munosabatlar ifodalanadi, ya’ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Burchning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Burch iymon-e’tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq...”⁵.

“Ijtimoiy burch”, “Ijtimoiy mas’uliyat” va uni o‘quvchi-talabalarda tarkib toptirish masalalari qator xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlarida tadqiqot mavzusi bo‘lganligini sohaga oid xorijiy manbalar tahlilidan ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Jumladan, R.Kosolapoyev, A.Plaxotniy, K.Muzdibayev, T.Sidorovalar o‘z tadqiqotlarini yoritishda “ijtimoiy javobgarlik/mas’uliyat (sotsialnaya otvetstvennost)” terminidan ko‘proq foydalanishgan bo‘lsa, “shaxsiy javobgarlik/mas’uliyat (lichnaya otvetstvennost)” terminini S.Rubinshteyn, K.Abulxanova-Slavskaya va L.Dementiyar ishlatishni ko‘proq odat qilishgan⁶.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati: - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 384.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 522-523.

⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 555.

⁵ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. B harfi. – T.: 2000, «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. – B. 718-719.

⁶ Косолапов Р. Свобода и ответственность. – М.: Политиздат, 1969. - 96 с.; Плахотный А. Свобода и ответственность:(социолог. аспект проблемы).— Харьков: Изд-во Харьков, 1979.– 159 с.; Муздыбаев К. Смысл жизни как потребность личности // Личност в системе коллективных отношений. – М.: 1980. – С. 175-200.; Сидорова, Т. Н. Исследование особенностей когнитивного и поведенческого компонентов социальной ответственности // Психологические условия формирования социальной ответственности школьников: сб. науч. ст.. – М.: 1987. – С. 51-54.; Рубинштейн С. Бытие и сознание. – М.: Изд-во АН СССР, 1957.- 328 с.; Абулханова-

Ushbu tadqiqotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, "ijtimoiy javobgarlik" termini insonning jamiyat normalari va qoidalarini bajarishi zarurligini, "shaxsiy javobgarlik" tushunchasi esa – shaxsning jamiyat talablari va shaxsning ehtiyojlari, imkoniyatlarini o'zaro bog'lash va o'z faoliyatini amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi.

O'quvchida qaror topadigan ijtimoiy burch natijasida yuzaga keladigan va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar zanjiri, ya'ni bilim olish, unga amal qilish va uni o'zidan keyingi avlodlarga o'rgatish masalasida ulug' alloma Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy shunday deydi: "Kim ilm olsa, unga amal qilsa va boshqalarga o'rgatsa, u kishi osmonlarda ulug' inson deb chaqiriladi. U odam quyosh kabidirki, boshqalar uchun ziyo tarqatadi va o'zi ham ziyolidir yoki mushki anbar kabidirki, boshqalarni xushbo'y qiladi va o'zi ham xushbo'ydir"⁷.

Bu borada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro to'g'ri munosabatni shakllantirish, o'qituvchi va o'quvchining mas'uliyat va burchini aniqlashtirib olish masalasida mahalliy tadqiqotchilardan Sh.Tog'ayev ham o'z munosabatini bildirgan. Tadqiqotchi ta'lim jarayonida samaradorlikni ta'minlovchi eng muhim omil o'qituvchi bilan o'quvchi-talaba o'rtasidagi to'g'ri yo'lga qo'yilgan hamkorlik munosabatlari va albatta o'quvchi-talabadagi ta'lim olishga, bilim o'rganish va o'zlashtirishga bo'lgan xohish-istak, rag'bat va talab-intilishning mavjudligi ekanligini qayd etadi⁸.

Darhaqiqat, o'quvchida ijtimoiy burchning shakllanishida o'qituvchi bilan teng ravishda jamiyat, ijtimoiy munosabatlar tizimi, ijtimoiy muhit va taraqqiyotning inson shaxsiga qo'yayotgan talablari muhim ahamiyatga ega.

Burchning xususiyatlari yoritilgan asarlar tahlilidan shu narsa aniq bo'ladiki, burchning axloqiy tomonlariga oid xilma-xil qarashlar mavjud. Jumladan, qator tadqiqotlarda "burch"ning ekspressiv xususiyati alohida tilga olinadi va "Men o'zimni boshqacha tuta olmayman, o'zgacha harakat qila olmayman" tamoyiliga ko'ra shaxs burchi ichki regulyator vazifasini bajaradi. Bunda eng yuksak ifoda rahm-shafqat deb tilga olinadi⁹. Sh.Tog'ayev o'z tadqiqot ishida burchning g'oyaviy-axloqiy, hissiy-irodaviy va samarali tarkibiy qismlarini alohida o'rganadi va ularning semantik ahamiyati muayyan funksiyalarni bajarishi ta'kidlanadi.

Burchning tarkibiy tuzilishi bayon etilgan ko'p sonli tadqiqot ishlarida uning tashqi va ichki shakli haqida fikrlar bildirilgan. Xususan, mahalliy tadqiqotchilardan I.Qodirov ijtimoiy burchning tashqi tuzilishi – javobgarlik sub'yekti (kim javobgar), ob'yekt (u nimaga javobgar), "hokimiyat/hukumat" (u kimga javobgar) kabi uch

Славская, К. А. Типология активности личности // Психологический журнал. 1985. – Т. 6, № 5.– С. 3-19.; Дементий Л. Типология ответственности и личностные условия ее реализации: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – М.: 1990.-23 с.

⁷ Абу Хомид Мухаммад ал-Фаззолий. Ихёу улумид-дин. Биринчи китоб. – Т.: Моварауннахр, 2003. –Б.136.

⁸ Тоғаев Ш. Ўқитувчилик миссияси ва ўқувчилик мажбурияти // Academic research in educational sciences/ Volume 2/issue 9/2021/ISSN:2181-1385/-Б.1127-1131.

⁹ Ассаджолли Р. Психосинтез. - М.: Рофл-бук. 1977.-317 с.

element yordamida ifodalanadi¹⁰. Bundan ma'lum bo'ladiki, burch munosabatlaridagi mas'uliyat sub'yekt (o'qituvchi) hamda muayyan instansiya (jamiyat) o'rtasida amalga oshiriladi, bunda sub'yekt faoliyatining turi va natijalari ushbu munosabatlarni belgilaydigan javobgarlik ob'yekti sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'z pedagogik faoliyati bosh maqsadining yuqori natijasi sifatida o'quvchi shaxsining shakllanishiga erishish zarurligini inobatga olsak, burchda asosiy narsa javobgarlik sub'yekti va ob'yekti o'rtasidagi munosabatlar, uning shart-sharoitlari va dinamikasi ekanligini ayon bo'lishi A.Shokirov tomonidan qayd etilgan¹¹.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib aytishimiz mumkinki, bizning nazdimizda, mas'uliyat sub'yekti va instansiya o'rtasidagi munosabatlarning dialektik tabiati ham bir xil darajada muhim sanalib, u sub'yektning instansiya oldidagi bevosita javobgarligida ham, sub'yektga teskari javobgarligida ham namoyon bo'ladi.

Ayrim psixologik manbalarda ta'lim-tarbiya bilan o'quvchining ruhiy salomatligi, ruhiy rivojlanishi o'rtasida uzviy bog'liqlik borligi ta'kidlanadi.¹² Bu bog'liqlik xorijlik va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, taniqli psixologik olim L.S.Vigotskiy shunday ta'kidni ilgari suradi: "Ta'lim-tarbiya bolaning psixik taraqqiyotidan har doim bir qadam oldinda borib, bu taraqqiyotga zamin hozirlaydi. Bolaning psixik taraqqiyotini, ya'ni bilish jarayonlarining rivojlanishini hamda shaxsiy fazilatlarining tarkib topishini tezlashtiradi. Ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishda o'quvchining psixik taraqqiyoti bilan ta'lim-tarbiya o'rtasidagi ana shu bog'liqlikni doimo nazarda tutish kerak¹³.

O'z burchini to'g'ri tushunadigan, o'ziga talabchan, ishi, bilimi va kuch-quvvatiga ishonadigan, o'z qadr-qimmatini saqlay oladigan barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish yo'llarini izlab topish va taqdim qilish hozirgi kun pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan biridir va ushbu vazifani bajarish o'qituvchidan o'quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishga yo'naltirilgan maqsadga muvofiq faoliyatni (metod, shakl, mazmun va vositalar) talab qiladi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi "**Maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning amaliy-didaktik tizimi**" deb nomlanadi va unda ijtimoiy burchni tarkib toptirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlari tahlil qilingan, o'quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan va maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini shakllantirish texnologiyasi takomillashtirilgan.

Bizning ta'lim tizimimizda innovatsion yondashuv sifatida qaralayotgan shaxsga yo'naltirilgan va individual ta'lim rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limida

¹⁰ Қодиров И. Ижтимоий масъулиятнинг когнитив ва хулқ-атвор таркибий қисмлари хусусиятларини ўрганиш // Мактаб ўқувчиларининг ижтимоий масъулиятини шакллантиришнинг психологик шартлари: илмий мақолалар тўплами. – Т.: 2017. – Б. 51-54.

¹¹ Шокиров А. Жавобгарлик психологияси // Academic research in educational sciences/ Volume 3/issue 8/2020/ISSN:2181-1385/-Б.932-939.

¹² Шаповаленко И. Возрастная психология (Психология развития и возрастная психология). — М.: Гардарики, 2005. — 349 с.; Обухова Л. Ф., Детская (возрастная) психология. /Учебник. - М., Российское педагогическое агентство. 1996, - 374 с.; Смирнова Е.О. Детская психология : учебник. — М.: КНОРУС, 2016. — 280 с.

¹³ Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005. — 1136 с

turli terminlar orqali ifodalanishini kuzatishimiz mumkin. O‘quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv turli terminlar orqali ifodalanadi (1-jadval).

1-jadval.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limiy yondashuvning turli tillarda qo‘llanuvchi terminlari

O‘zbek tilida	Rus tilida	Nemis tilida	Ingliz tilida
Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim	Lichnostno-oriyentirovannoye obucheniye	Personenorientiertes Lernen; Schülerzentriertes Lernen	Person-oriented education; Student-centered learning;
Individual ta‘lim	Individualnoye obucheniye	Individuelle Ausbildung	Individual education
Differensiallashgan ta‘lim	Vnutrennyaya differentsiatsiya	Binnendifferenzierung; Innere Differenzierung	Internal differentiation approach

Burch, mas‘uliyat va majburiyat shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikaning qadriyatlari doirasida katta ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvda “o‘quvchilar iqtidorini qo‘llab-quvvatlovchi maktab” nuqtai nazari shaxs tushunchasining pedagogik mazmunini aks ettiradi. Mazkur jarayonni, ya‘ni shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikaning qadriyat sohasidagi burch, mas‘uliyat konsepsiyasini batafsil ta‘riflash uchun Yevropa pedagogikasida keng qo‘llanuvchi modelga (1-rasm) murojaat qilish, uni o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi.


Ushbu model¹⁴, o‘z navbatida, murakkab kopsepsiya sifatida o‘nta tezis orqali tushuntiriladi hamda uni pedagogik mulohaza va muhokama qilish uchun G.Krays tomonidan uning shartlari taqdim etilgan. Tarixan qaraydigan bo‘lsak, ushbu model o‘tgan asrning so‘nggi choragida nemis olimi O.Hyoffe¹⁵ tomonidan ilk bor tilga olinganligini ko‘rishimiz mumkin. O.Hyoffening ushbu jarayon strukturasiidan farqli o‘laroq, mazkur modeldagi individual omillar faqat shaxs tushunchasidan kelib chiqadi hamda ular o‘zaro bog‘liq holda tushuntiriladi. Bu esa o‘ziga xos mas‘uliyat pedagogikasini ifodalashi mumkin bo‘lgan yaxlit ko‘rinishga olib keladi. Aslida, mas‘uliyatli axloqiy xulq-atvorni rag‘batlantirish turli atrof-muhit ta‘siri va tizimli sharoitlar, shuningdek, o‘zaro munosabatlar sifati, maktab ichki-tartib qoidalari, qadriyatlari va maqsadlariga bog‘liqligi ko‘plab manbalarda alohida ta‘kidlanganligini guvohi bo‘lamiz.

Pedagog kadrlarni tayyorlash nafaqat xorijiy oliygohlarda qo‘lga kiritilgan ilg‘or pedagogik yutuqlarni o‘z ta‘lim tizimimizga mazmunan singdirishni, shu bilan birga, millatimizgagina xos xulq-atvor, madaniyat va qadriyatlarni yoshlar ongida

¹⁴ Мазкур модел А.Наккл, С.Паули, О.Стеенбука, Г.Вейганда томонидан ишлаб чиқилган. К. Werteschulischer Begabtenförderung. Begabung und Leistung.– Frankfurt, M.: Karg-Stiftung 2012, S. 6-13.

¹⁵ Höffe O. Lexikon der Ethik. – München: Beck. 1986. –P. 379.

shakllantirishimizni ham taqozo etadi. Bunda ona Vatan, xalqimiz, jamiyatimiz, mahallamiz, oilamiz va hatto o'z shaxsimiz oldidagi burchni his etadigan, o'z majburiyatlarini so'zsiz bajara oladigan yosh avlodni tarbiyalash har birimiz uchun ham farz, ham qarzdir. Ushbu aspektlarni inobatga olgan holda maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissining tuzilishi, mazmuni va shakllanishidagi o'ziga xosliklar ijtimoiy burchni shakllantirish modelini ishlab chiqishga imkon beradi.



1-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning qadriyat sohasidagi burch, mas'uliyat konsepsiyasi modeli

Boshqa modellar kabi mazkur konseptual loyihada maqsad, ushbu maqsadga yetaklovchi vazifalar, ularni bajarishda amal qilinadigan tamoyillar va mezonlar, shuningdek, uni amalga oshiruvchi muayyan shart-sharoitlar bo'lishi talab etiladi. Qolaversa, ushbu modelning mazmuni, ya'ni uning turlari va tarkibiy qismlari hamda


uni amalga oshiradigan bosqichlar va uning natijalari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Har bir modelni ishlab chiqishda muayyan maqsadlarga erishish ko'zda tutilgani kabi ushbu modelning maqsadi maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirishdan iborat hisoblanadi. O'quvchilarda shakllanadigan ijtimoiy burch tuzilish jihatdan uchta komponentlarning o'zaro munosabatidan tarkib topadi:

1. **Kognitiv komponent:** bunda o'quvchilar tomonidan egallanadigan ijtimoiy burch, majburiyat va huquqlarning mohiyati, o'z atrof-muhiti, jamiyatida amal qilinadigan xatti-harakatlarning normalari va qoidalari, shuningdek, shaxs va u "yashayotgan" jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish usullari borasida o'zlashtirilgan bilimlar jamlanmasi, tizimi nazarda tutiladi.

2. **Motivatsion komponent:** o'quvchilarning ijtimoiy burchga doir hulq-atvori, o'zlarini tutishlari va xatti-harakatlari motivlari, ijtimoiy burchni anglagan holda o'z kasbiy faoliyati va ijtimoiy faolligini tartibga solish uchun turtki tushuniladi.

3. **Faoliyatli komponent:** o'quvchining hulq-atvori, xatti-harakatlari ongli ravishda tanlashga, o'z faoliyatiga doir rasional qarorlar qabul qilishga, o'z qarorlari oqibatlarini baholay olishga, o'z dunyoqarashi va ongiga muvofiq xatti-harakatlardagi zarur cheklovlarni aniqlashga tayyorligi.




2-rasm. Maktab o'quvchilarida ijtimoiy burch hissini qaror toptirish tamoyillari

Bu kabi pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan ta'lim muassasalari, o'z navbatida, muayyan an'anaviy tamoyillarga tayangan holda o'quvchilarda ijtimoiy burch hissini yaratish jarayonini tashkil etishi maqsadga muvofiq sanaladi (2-rasm).

Tadqiqotda mazkur tamoyillar batafsil tavsiflangan.

Maktab o'quvchilarining ijtimoiy burchini shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga egaligidan kelib chiqqan holda uning modelini ishlab chiqish ishimizdan kutilayotgan vazifalardan biri sanaladi. U tuzilish jihatdan to'rt tarkibiy qismdan: maqsadli (strategik), mazmunli (konseptual), pedagogik jarayon (protsessual) va yakuniy (natijaviy) komponentlaridan iborat (3-rasm).





NATIJA: IJTIMOY BURCH HISSI SHAKLLANGAN O‘QUVCHI SHAXSI

3-rasm. O‘quvchilarda ijtimoiy burchni qaror toptirishning pedagogik modeli

Dissertasiyada o‘quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirishning pedagogik modeli tavsifi keltirilgan.

Maktab o‘quvchilarida ijtimoiy burch hissini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqishda V.V.Guzeyev, V.V.Pikan, N.Ye.\Shurkova¹⁶ izlanishlaridan unumli foydalanilgan bo‘lsa-da, u muallifning ma‘lum uslubiy, falsafiy nuqtayi nazariga asoslanadi, shuningdek, unda pedagogik harakatlar, jarayonlar ketma-ketligi, hamkorlikdagi aloqalarning texnologik zanjiri aniq kutilgan natija shakliga ega bo‘lgan maqsadli qarashlarga muvofiq qat’iy ravishda ishlab chiqilgan hamda individuallashtirish va differensiallashtirish, insoniy va texnik imkoniyatlarni eng maqbul darajada amalga oshirishni, o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘qituvchi hamkorligini ta‘minlashni maqsad qiladi. Bulardan tashqari, pedagogik texnologiya elementlari nafaqat har qanday o‘quvchi tomonidan takrorlanadi, balki barcha o‘quvchilar tomonidan rejalashtirilgan natijalarga erishish imkoniyati kafolatlanadi hamda uning tarkibiy qismi mezonlar, ko‘rsatkichlar va vositalarini o‘z ichiga olgan diagnostik jarayonlardir (2-jadval).

Dissertatsiyaning uchunchi bobi **“O‘quvchilarda ijtimoiy burch hissini qaror toptirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari va uning tahlili”** deb nomlanadi va ijtimoiy burch hissini qaror toptirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni tavsiflangan hamda pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlili keltirilgan.

2-jadval

Maktab o‘quvchilarida ijtimoiy burch hissini shakllantirish texnologiyasi (tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmasi misolida)

Bosqichlar (algoritmning umumiy bosqichlari)	Maxsus bosqichlar
Dastlabki diagnostika (konstruktiv va mazmunli)	<p><u>Analitik-diagnostik bosqich</u></p> <p>“Tarbiyaviy soat” yoki darsdan tashqari tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda yuqori sinf o‘quvchilariga “ona yer, ona tabiatning asosiy xossalari va xilma-xilligi”, “Tabiatning kimyoviy tarkibi”, “Yerda hayotning paydo bo‘lishi haqidagi zamonaviy g‘oyalar», «Evolyutsion ta‘limot. Organik olamning rivojlanishi», «Biosfera va odam», «Organizm va atrof-muhit</p>

¹⁶Гузеев В.В. Планирование результатов образования и образовательная технология. – М.: Народное образование, 2001. – 240 с.; Краткий справочник по педагогической технологии / П.И. Арапова и др.; под ред. Н.Е. Щурковой. – М.: Новая школа, 1997. – 64 с.; Психология и педагогика: Курс лекций: Учеб. пособие для студентов / Авт. кол.К.А. Абульханова и др. – М.: Совершенство, 1998. – 319 с

